



BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QUVCHILARIGA XORIJY TILLARNI O‘RGATISH USULLARI

Nabixonova Madinabonu Aliyevna

*Samarqand davlat chet tillar instituti Ingliz tili 2 fakulteti
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda ingliz tili yo‘nalishi
2-bosqich talabasi.*

Ilmiy rahbar: N.N.Zubaydova

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy tillarni ya’ni ingliz tilini boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilariga tez, sifatli va qiziqarli o‘rgatish usullari haqida ma’lumot berib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: ingliz tili, o‘yin turlari va ularning ahamiyati, metod.

Hozirgi kunda xorijiy tillarga bo‘lgan talab kuchayib bormoqda. Maktabgacha ta’limda, umumiyligi o‘rta ta’limda, oliy ta’limda, oliy ta’limdan keyingi ta’limda ham ingliz tiliga bo‘lgan e’tibor va qiziqish ortgan. So‘nggi yillarda chet tillarini o‘rganish qiziqish emas, balki zaruriyat bo‘lib bormoqda, chunki hozirgi kunda til o‘rganish faqat o‘qish uchun emas, balki yangi texnologiyalardan foydalana olish, dunyo yangiliklaridan xabardor bo‘lish uchun ham kerak. Bundan bir necha yil oldin chet tillarini bilish faqatgina ba’zi sohalarga taalluqli edi. Hozirda esa har bir sohaga tegishli.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012- yil 10- dekabrdagi "Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ 1875- sonli qarori boshlang‘ich ta’lim tizimida juda katta ijobjiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Ushbu qaror asosida umumiyligi o‘rta ta’lim maktablarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining chet tilini, asosan ingliz tilini, o‘rganishlari uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar yaratib berildi.[1].

O‘yining ahamiyati. Bola tabiatan juda qiziquvchan bo`ladi va u atrof olamni o‘rganish uchun barcha xis tuyg‘ularini ishga soladi. O‘yin bolaning eng asosiy va sevimli mashg‘uloti bo‘lganligi bois, bolaga atrof olam va undagi barcha zaruriy bilim va ko`nikmalar o‘yin vositasida tanishtirib borilsa, ko`nikmalarni o‘zlashtirish samaradorligi bir necha barobarga oshadi. O‘yin bolani nafaqat jismoniy faolligini oshiradi shuningdek, u ruhiy tetiklikni ham shakllanitirshga yordam beradi. O‘yin bolani o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga, atrofdagilar bilan ijtmoiy munosabatlarni shakllantirishga ham katta ko`mak beradi. Shu sababli ota — ona va tarbiyachi murabbiylar bolalarga imkon qadar ko‘proq o‘yin orqali o‘rganishni targ‘ib qilishlari kerak. Aynan o‘yin orqali bolalar ta’lim oladilar o‘z iqtidorlarini kashf etadilar. Bunga erishish uchun sezgi organlarini faollashtiruvchi muhitni, jumladan vizual, eshitish, kinestetik kabi faol ta’lim turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ta’limiy o‘yinlar musiqa asboblarnini chalish, qo’shiqlar kuylash, she’r



aytish, raqsga tushish, o'yin o`ynash, videolar tomosha qilish, qo`l mehnati vositasida turli narsalar yasashni o'z ichiga oladi. Rangli ko`rgazmalar, kartalar, musobaqalar, rol o'yinlar, turli shakllar yasash kabi o'yinlar Rangli ko`rgazmalar, kartalar, musobaqalar, rol o'yinlar, turli shakllar yasash kabi o'yinlar bolalarni jismoniy va aqliy faoliyatini rivojlantiruvchi eng qiziqarli usullardan biridir [2].

Chet tillarini o'rgatishda asosan kommunikativ texnologiyalardan foydalanish kerak, ya'ni audio ilovalar, vediolar, multimedialar, bundan tashqari, ertak, hikoya va turli xil ko'rgazmali qurollar yordamida o'rgatish foydalidir. Bolalar ko'proq taqlid qilish orqali o'rganishadi. Kichik yoshidagi bolalarga multfilmlarni ko'rib ingliz tilini o'rganish qiziqarliroq, chunki ularning ong ostida multfilm qahramonlarining har bir aytgan so'zlari fonetik jihatdan to'g'ri shakllanadi va to'g'ri talaffuz qilishni o'rganishadi. Bolalarga hayvonlarning, mevalarning nomlaridan va boshqa kundalik hayotda ishlatiladigan so'zlardan foydalanib ertak va hikoyalar tuzib o'rgatsak ular uchun yanada foydali va oson bo'ladi, chunki bolalar ertak orqali ko'p narsani o'rganishadi. Pantamimika o'yini orqali ham kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish mumkin. Misol uchun: samalyotni yoki ayiqni ko'rsatib berib ularning ingliz tilidagi nomini so'rash orqali.

Bolalar o'yinqaroq bo'lganligi uchun biz ko'rsatgan harakatlarni qaytaradi va yangi so'zlarni o'rganadi.[3].

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatish jarayonini qat'iy talablar asosida emas , aksincha , interfaol metodlardan foydalanib o'yin tarzida o'tkazish yanada samarali bo'ladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz> ("Xalq so'zi" gazetasi, 11.12.2012-y., 240 (5660)-son; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.07.2019-y., 06/19/5759/3385-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.09.2021-y., 06/21/6311/0861-son, 09.11.2021-y., 06/21/3/1037-son, 12.05.2022-y., 07/22/241/0408-son).
2. Юсупов, Л. С. Bolalarni ilk yoshida xorijiy tillarni o'rgatishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati: Muammo va yechimlar / Л. С. Юсупов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 26 (316). — С. 339-343. — URL: <https://moluch.ru/archive/316/72186/>.
3. Ungbayeva Mohichehra Mahmatkarimovnaning "Maktabgacha yoshdag'i bolalarga chet-tili o'qitishning samarali usullaridan foydalanish imkoniyatlari" ..
- 4.Zubaydova Nilufar Nematillaeva , Learning English with phrases (2019).
5. Zubaydova Nilufar Nimatillaeva, The importance of teaching vocabulary (2019).